

O‘SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI

Sagindikova N.J

QDU dotsenti

Tolibaeva F.Q

QDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397134>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ósmirlar psixologiyasi rivojlanishi, ósmir shaxsi va uning óziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit sózlar: ósmir, shaxs xususiyatlari, biologik omil, psixologik rivojlanish, ijtimoiy omil.

THE FORMATION OF PERSONALITY DURING ADOLESCENCE

Abstract. This article describes the development of adolescent psychology, adolescent personality and its unique aspects.

Key words: adolescent, personality traits, biological factor, psychological development.

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В данной статье описывается развитие подростковой психологии, личности подростка и ее уникальные аспекты.

Ключевые слова: подросток, особенности личности, биологический фактор, психологическое развитие, социальный фактор.

Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning poydevori va kelajagi. «**Farzandlarimiz bizdan kóra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bólishlari shart!**» degan hayotiy davat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan keng mustaxkam órin egallagan [1, 13].

Shu boisdan talim va tarbiya bir -biridan ajiralmas uzviy bog‘liq process dep takidlap ótgan yurtboshimiz. Ayniqsa ósmirlik davridan boshlab uning xulq-atvori, talim va tarbiyasiga alohida etibor berilsa undan insonparvar komil shaxs shakillanadi.

Kópincha bolalik va kattalar órtasidagi kóprik deb xisoblangan ósmirlik inson rivojlanishining muhim bosqichi bólib, chuqur jismoniy, kognitiv va ijtimoiy - emotsional ózgarishlar bilan tavsiflanadi.

Ta’lim sohasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohatlarning biz tanlagan «o‘zbek modeli»-o‘z taraqqiyot yo‘limizning ajralmas tarkibiy qismidir. ... bu dastur hayotda o‘z fikriga, o‘zining qarashlari va qat’iy grajdanlik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, har

tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. [1]

Jamiyatda shaxsning shakllanishi va ijtimoiylashuvi hozirgi davr psixologiyasining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'sib kelayotgan har bir shaxsning yosh xususiyatlari ijtimoiylashuv jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa o'spirin yoshdagilarning ijtimoiylashuv jarayonidagi muloqot muammolari muhim ahamiyat kasb etib, har tomonlama va chuqur tadqiqot qilishni talab etmoqda.

Xar bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir.

Yosh davrlari psixologiyasida ilk o'spirinlik davri 15-18 yoshlarni qamrab olgan murakkab davr hisoblanadi. Mazkur davrdagi yoshlar ham jismonan, ham ma'naviy rivojlanishiga, ruhiy, ijtimoiy, jismoniy jihatdan yetuklikka intiladi. O'spirin shaxsining ijtimoiylashuvi o'qish va turmush sharoitidagi muhit ta'sirida, tengqurlari orasida yuz beradi. Ijtimoiy hayot tarzi, ta'lim tarbiya xarakterining o'zgarishi yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy his-tuyg'ularning vujudga kelishiga, bilim va kasb hunarni o'zlashtirishga ijodiy yondashishning kupayishiga olib keladi.

Ósmirlik- bolalikdan kattalikka ótish davri bólib, bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, xayottagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, manaviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. Ósmirlik balogátga etish davri bólib, yangi xislar, sezgilar va jinisiiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bólishi bilan ham xarakterlanadi [3, 145]

Ózmirlar ózlarini kattalardek tutishga xarakat qiladilar. Ular ózlarining layoqat, qobilyat va imkoniyatlarini malum darajada órtoqlari va óqituvchilariga kórsatishga intiladilar. Bu davr <<ótish davri>>, <<krizis davri>>, <<qiyin davr>> kabi nomlarni olgan psixologik kórinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi ósmirlarning xatti-xarakatida muqobil, yangi sharoitlarda óz órnini topa olmaydigan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. *L.S.Vigotskiy* bunday holatni <<psixik rivojlanishdagi krizis>> dep nomlagan.

Ósmirlik davrda ógil va qizlarning ruxiyatida ózlikni anglashga bog'liq bir talay muammoli savollar va ularning turmishda qaror toptirish tuyg'ulari, istaklari, orzulari paydo bólib, kópincha bu narsalar yakka shaxsning <<kimligi>>, <<qandayligi>>, <<kimga va nima uchun kerakligi>> ga yóntiriladi. Bolaning psixik xususiyatlari, funkciyalari (lot. functio ijro etish, bajarish degan manoni anglatadi) uni qurshab turgan jonli va jonsiz tabiat ajoyibotlarini jismoniy va ijtimoiy vositalar orqali egallash uchun xizmat qiladi [2, 5]

Ósmir ulgáygan sari unda <<Ideal men>>, <<Axloqiy men>>, va <<Haqiqiy men>> singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, etiqod va boshqalar shakllana boshlaydi, undagi ózi

tógrisidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bólib qoladi [4, 254]

Ótkazilgan tadqiqotlar shuni kórsatadiki, ósmirlarning kópchiligi qatiyatliligi, kamtarlik, maǵrurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi manaviy, axloqiy tushinchalarni tóǵri anglyadilar. Ularning turmish tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror etiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy idealar yuzaga kela boshlaydi. Ósmir yoshdagi bolaning birinchi intilishi, u ózini endi kichkina bola emas, balki katta bólib qolganligini atirofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan ósmir shunday qilishga haqqi borligiga óz-ózin ishontiradi, chunki men endi <<katta bólib qoldim>> deb óylaydi. Shuning uchun psixologlar katta bólib qolganlik tuyǵisini shaxsning ósmirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar. Ósmirlar shaxsi shakillanib, rivojlanib, kamolatga erishishda bevosita biologik va ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Biologik tasir sifatida ularning jinsiy yetilishi va gormonal ózgarishi asos qilib qaralsa, ijtimoiy omillarga quydagilarni misol etsak bólad: kichik maktab yoshidan orta maktab yoshiga ótish, muloqattagi ózgarishlar vs bolaning oiladagi órni ózgarishi.

Mana shu ijtimoiy sharoitlarni ulardagi psixologik iqlimni ózgartirish yóli bilan ósmirlarning xulq-atvoriga tóǵridan-tóǵri tasir kórsatish, yomon xulq-atvor, ójarlik, kamchiliklarni tan olmaslik kabi salbiy xislatlarning oldini olish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ósmirlar psixologiyasi juda ózgaruvchan bólganligidan ular aslida nima hohlashini, maqsadini yaqqollashtirib olishlari qiyin kechadi. Óziga degan baxosi, ózi va atirofdagilarga bólgan munosabatlari ózgaradi. Oziga bólgan ishonchi kamayib nuxsonlari haqida óylab uyaladi, kópchilik ósmirlarda ózidan qoniqmaslik hislari paydo bólad. Ammo ularga tóǵri yól-yóriq berib farovonlikka undalsa, har bir ósmirning xayotta óz órnini topishga yordam berilsa Vatanimizning yanda rivojlanib ravnaq topishiga óz hissamizni qóshgan bólamiz.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Ózbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. <<Ózbekiston>> Toshkent - 2016, 13-b
2. Ózиеv E.Ó. Umumiy psixologiya Toshkent - 2002
3. Sh.A.Dóstmuhamedova, Z.T.Nishoniva, C.X.Jalilova, Sh.K.Karimova, Sh.T.Talimbaeva Yosh davrlari psixologiyasi
4. A.K.Болотовна, O.H.Моланова Психология развития и возрастная психология <<ВШЭ>> Москва - 2012, 254-с
5. <http://manzura90.zn.u>

6. Сагиндикова. Н.Ж.Ўспиринлардаги мулоқотчанликнинг унинг ижтимоийлашувига таъсири масалалари психологлар талқинида «Халқ таълими» журнали. 2012/3. – Б.83-86
7. Сагиндикова. Н.Ж.Ўспирин ўзини англаб тобора. «Соғлом авлод учун» журнали. 2012/11